

“O’CHOQLI SKLERODERMIYANI KECHISHIDA BEMORNING YOSHI, JINSI, VA HAMROH KASALLIKLARINING AHAMIYATI

Mustaqil izlanuvchi: Ismailova Fazilat

Ilmiy rahbar: Tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Saipova N.S.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21450067>

Skleroderma -(yunoncha *skleros*—“qattiq” va *derma*—“teri” soʻzlaridan) olingan boʻlib, kollagenozlar guruhiga mansub progressiv autoimmun kasallikdir. Sklerodermaning ikkita asosiy shakli ajralib turadi: mahalliy va tizimli. Bir qator tadqiqotchilar ushbu shakllarni bitta asosiy jarayonning namoyon boʻlishi sifatida koʻrib, mahalliy sklerodermiyada teri shikastlanishi va tizimli sklerodermada esa, umumiy ishtirok sifatida namoyon boʻladigan oʻxshash patologik mexanizmni taʼkidlaydilar (Yu.K. Skripkin, 2009; N.G. Guseva, 2012; va boshqalar).

Adabiyotlarda OʻS koʻproq ayollarda uchrashi, bolalar va kattalarda klinik jihatdan farqli kechishi, ayrim shakllarida esa funksional nuqson va kosmetik defektlarga olib kelishi taʼkidlanadi. Florez-Pollack, Kunzler va Jacobe morfeyani zamonaviy dermatologiyada faqat teri kasalligi sifatida emas, balki immun-vaskulyar-fibrotik spektrdagi koʻp omilli kasallik sifatida koʻrib chiqadilar. [pubmed.ncbi.nlm.nih.gov]

Mahalliy sklerodermiyaning etiologiyasi nomaʼlum. Kasallik patogenezida autoimmun kasalliklar, teri va teri osti toʻqimasida kollagen va boshqa biriktiruvchi toʻqima komponentlarining sintezi va choʻkishining kuchayishi hamda mikrosirkulyatsiya buzilishlari asosiy rol oʻynaydi deb hisoblanadi.

Mahalliy sklerodermiyaning tarqalishi 100 000 aholiga 2,7 holatni, tarqalishi 1000 aholiga 2 tani tashkil etadi [1]. Rossiya Federatsiyasida 2009 yilda mahalliy sklerodermaning tarqalishi 16 140 holatni tashkil etdi: 13 885 kattalar, 15-17 yoshdagi 690 oʻsmir va 14 yosh va undan kichik 1565 bolalardir [2]. Kasallik har qanday irq vakillarida, erkaklarga qaraganda ayollarda koʻproq uchraydi (2,6:1).

Tizimli skleroz (TS) yoki progressiv tizimli skleroz - bu immun buzilishlari va Reyno fenomeni kabi vazospastik qon tomir reaksiyalari natijasida kelib chiqadigan, fibroz shakllanishining faollashishi va toʻqimalar va organlarda hujayradan tashqari matritsa komponentlarining haddan tashqari choʻkishi bilan birga keladigan koʻp organli kasallikdir.

Koʻpgina tadqiqotchilar tizimli sklerodermiyani ni ikkilamchi osteoporoz (OP) rivojlanishi uchun potentsial xavf omili deb hisoblashadi [Aleksperov R.T., Toroptsova N.V., 2015; Dobrovolskaya O.V. va boshqalar, 2019; Efremova A.O. va boshqalar, 2021; Omair M.A. va boshqalar, 2013; Maruotti N. va boshqalar, 2014; Adami G. va boshqalar, 2019; Taylan A. va boshqalar, 2019 Midol C. va boshqalar, 2021], bu bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi [Raskina T.A. va boshqalar, 2019; Lesnyak O.M. va boshqalar, 2018, Solodovnikov A.G. va boshqalar, 2018]. Biroq, bugungi kunga qadar TS ning qaysi oʻziga xos parametrlari va xususiyatlari suyak mineral zichligining (BMD) pasayishiga va OP rivojlanishiga hissa qoʻshishi borasida yagona fikr mavjud emas.

RIDV va KIATIM ning Toshkent shahar hududiy filialida 2022 -2027 yilga qadar 60 nafar bemor “O’choqli Sklerodermiya “ tashxisi bilan davo muolajalarini oldi.

Ulardan : 21-51 yoshdagilar tashkil etgan. Ulardan 68 % ayollar , 32 % erkaklar tashkil etgan . 60 nafar bemordan : 6 nafarida – Atopik dermatitni chegaralangan turi, Allergodermatit, Impetigo, Psoriaz, Atopik dermatitni tarqoq turi , Seboreyali dermatit kabi kasalliklar hamroh bo'lib kelgan . Yoshligida o'tkazgan kasalliklari dan : 30 % da gepatit A, 10 % da epid parotit , 40% da COvid o'tkazganligi ma'lum bo'ldi . Bemorlani barchasi milliy klinik protokolga asoslangan davo olgan .

Natija :

Bemorlarni yoshi o'rtacha 21-51 yoshlarni tashkil etgan, hamroh kasalliklardan 6 nafarida – Atopik dermatitni chegaralangan turi, Allergodermatit, Impetigo, Psoriaz, Atopik dermatitni tarqoq turi , Seboreyali dermatit kabi kasalliklar hamroh bo'lib kelgan

Xulosa: O's bemorlarni aksariyati ayollar tashkil etadi , autoimmun kasalliklarda hamroh kasalliklar mavjudligi jarayonni dolzarbligini ko'rsatadi.

